

ESKI TURKIY TILDA GAP BO'LAKLARINING IFODALANISHI**Nazarova Sabrina Zafarjon qizi****NamDu talabasi,****Email: nazarovasabrina046@gmail.com****<https://doi.org/10.5281/zenodo.17395178>**

Annotatsiya: Maqolada hozirgi o'zbek tilining so'z birikmalari va gap tuzilishi tarixiy taraqqiyot jarayonida qanday shakllanganligi yoritilgan. Qadimgi turkiy va eski davr tilining sintaktik qurilishi bilan hozirgi zamon o'zbek tili sintaksisi qiyosiy tahlil qilingan. Ayniqsa, morfologiya va leksikadagi o'zgarishlarning sintaksis taraqqiyotiga ta'siri, fors-tojik tilining o'zbek tiliga ta'siri natijasida yangi so'z birikmalari va ergash gaplarning paydo bo'lishi ko'rsatib berilgan. Maqolada ega va kesimning grammatik-semantik xususiyatlari, ularning qadimgi, eski va hozirgi o'zbek tilidagi o'rni, shakllanish imkoniyatlari va badiiy matnlardagi qo'llanishi keng yoritilgan. Shuningdek, mumtoz adabiyot namunalaridan misollar orqali ega va kesimning turli ifoda shakllari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: hozirgi o'zbek tili, sintaksis, ega, kesim, so'z birikmasi, gap tuzilishi, tarixiy taraqqiyot.

Аннотация: В статье освещается, как в процессе исторического развития формировались словосочетания и структура предложений современного узбекского языка. Проведен сравнительный анализ синтаксического строя древнетюркского, староузбекского и современного узбекского языков. Особое внимание уделено влиянию морфологических и лексических изменений на развитие синтаксиса, а также воздействию персидско-таджикского языка, в результате чего появились новые словосочетания и придаточные предложения. В статье подробно рассматриваются грамматико-семантические особенности подлежащего и сказуемого, их место и формы выражения в древнетюркском, староузбекском и современном узбекском языках, а также их употребление в художественных текстах. Кроме того, на примерах из классической литературы проанализированы различные способы выражения подлежащего и сказуемого.

Ключевые слова: современный узбекский язык, синтаксис, подлежащее, сказуемое, словосочетание, структура предложения, историческое развитие.

Abstract: The article highlights the historical development of word combinations and sentence structure in the modern Uzbek language. A comparative analysis is carried out between the syntactic system of Old Turkic, Early Uzbek, and contemporary Uzbek. Special emphasis is placed on the influence of morphological and lexical changes on syntactic development, as well as the impact of the Persian-Tajik language, which led to the emergence of new word combinations and subordinate clauses. The paper examines in detail the grammatical and semantic features of the subject and predicate, their role and forms of expression in Old Turkic, Early Uzbek, and modern Uzbek, along with their use in literary texts. Furthermore, examples from classical literature are analyzed to demonstrate various ways of expressing subjects and predicates.

Keywords: modern Uzbek language, syntax, subject, predicate, word combination, sentence structure, historical development.

Hozirgi o'zbek tilining so'z birikmalari, gap bo'laklari, gap tuzilishi uzoq yillik tarixiy taraqqiyot mahsulidir. Qadimgi turkiy va so'nggi davrlar tilining tuzilishi bilan hozirgi zamon

tili tuzilishini qiyoslar ekanmiz, yozma adabiy til fonetik, morfologik jihatdangina emas, tuzilishi tomonidan ham takomillasha borganini ko'ramiz. Shunisi muhimki, sintaksisdagi o'zgarishlar ko'pincha morfologiya va leksika tarkibida bo'lgan o'zgarishlar tufayli ro'y bergan. Masalan, vosita kelishigining iste'moldan chiqishi so'zlarning boshqaruv munosabatini o'zgartirdi va hol doirasini kengaytirdi. Shuningdek, yangi so'zlarning paydo bo'lishi yangi so'z birikmalarini keltirib chiqaradi. Sintaksis taraqqiyotidagi ikkinchi omil – boshqa tillarning ta'siridir. Tarixda o'zbek tiliga, ayniqsa, fors-tojik tilining ta'siri sezilarli bo'lgan. Bu tilning ta'siri bilan yangi so'z birikmalari va ergash gaplar vujudga keladi, bog'lovchilarning qabul qilinishi bilan so'zlarni hamda gaplarni biriktirishning yangi usuli kelib chiqadi.

Ega – harakat, holat yoki belgi-xususiyat taalluqli bo'lgan tushunchani ifodalovchi gap bo'lagidir. Ega shaklan bosh kelishikdagi so'zlar orqali ifodalanadi. Eganing qaysi shaxsga taalluqli ekani jumlaning umumiy mazmunidan anglashiladi yoki ega I yoki II shaxsga oid bo'lganda, kesimning shaxs ko'rsatuvchi shakllari orqali bilinib turadi. Kesim tarkibida shaxs qo'shimchalarining bo'lishi taraqqiyotning so'nggi bosqichlariga oiddir. Bu belgilar muttassil ravishda XIII-XIV asr yodnomalarida qo'llana boshlaydi. Uchinchi shaxsga oid kesimlarning shaxs qo'chimchalari bo'lmaydi. Shuning uchun bunday qurilmalarda eganing ifodalanmasligi fikrni tez tushunib olishni qiyinlashtiradi.

Ega odatda ot, otlashgan so'z yoki olmosh orqali ifodalanadi. Bu xususiyat hozirgi va eski davr tili uchun bir xildir. Ammo qadimgi va eski turkiy tilda, asosan, ot turkumidagi so'zlar bilan ko'proq ifodalanadi. Eganing harakat nomlari va olmoshlar bilan ifodalanishi kamroq, ammo otlashgan so'zlar bilan ifodalanishi ko'proq uchraydi:

Men dag'i kuymay qutulmoq, ey ko'ngul, mumkin emas,
Bo'ylakim soldi damim g'am dashtida har yong'a o't.

(Sharh: Ey ko'ngul, chekkan ohlarimdan g'am dashtida har yonga o't tushdi. Endi men bu otashdan kuymay qutulmog'im imkoni yo'q)

Charx motam yetkurur, **biz** dag'i oncha yig'lali
Kim, kuhan g'amxonasi ul seldin qilsun nishast.

(Sharh: Falak dastidan har dam aza va motamlar yuz bermoqda, biz ham shunday yig'laylikki, ko'z yoshlarimiz seli bu eski g'amxonani buzib yuborsin)

77-g'azal

Qachonki ul buti shirinkalom qildi hadis,
Havosi sharbati yuhyil-izom qildi hadis.

(Sharh: Shirin so'zli ul sanam qachonki so'zlasa, uning so'zlarida o'liklarni tiriltiruvchi xosiyat bor edi)

89-g'azal

Ega, odatda, ko'plik va egalik affikslari bilan kelishi mumkin. Bunday shakllanish qadimgi va eski turkiy tilda kam uchraydi:

Anjuman ahli yuzin gulgul qilali may bila,
Mehrdin topquncha anjum **gullari** bir-bir shikast.

(Sharh: Quyosh nurlaridan yulduz gullari sinib – so'nib qolgunga qadar anjuman ahlining yuzini may bilan gullataylik)

77-g'azal

Kesim gapning shakllanishida asosiy rol o'ynaydi. Uning bu xususiyati ayniqsa qadimgi va eski turkiy tilda yaqqol ko'rinadi. Bu davr tilida kesimlarni qator, ketma-ket keltirish yo'li bilan murakkab fikrlar ifodalanadi:

Vujudum **o'rtading**, ey ishq, emdi tarkim **tut**,
 Xudoy uchun, meni qayda **ko'rdung**, anda **tut**.

(Sharh: Ey ishq, butun vujudimni yondirding, endi meni tark et. Xudo haqqi, qayerda meni ko'rgan bo'lsang, o'sha joyda unut)

79-g'azal

Kesim hamma so'z turkumlari orqali ham ifodalanadi. Bu xususiyat har vaqt saqlanib kelgan. Ammo eski, ayniqsa, qadimgi turkiy tilda kesim ko'proq ot va ot ma'nosidagi so'zlar bilan ifodalangan.

Soqiyo, bu g'ussa daf'i mastu **behudlug'durur**,
 Tut shafaqgun may to'la gar **xud erur** gardun qadah.

(Sharh: Ey soqiy, bu g'ussani daf qilishning chorasi – hushini yo'qotguncha mast bo'lishdir. Shuning uchun menga falak kosasini qadah qilsang ham, qizil sharobga to'ldirib ber)

105-g'azal

Qadimgi va ilk eski turkiy tilning xususiyati shundaki, bu tilda ot kesimlar ko'pincha bog'lamasiz keladi. Bu holda ega bilan kesim o'rniga ko'ra farqlanadi: kesim vazifasidagi ot gapning oxirida joylashadi:

Ko'yi gardidin o'luk jon topsa tong **yo'q**, negakim
 Tufrog' o'ldi ko'yida behaddu beandoza ruh.

(Sharh: Ko'yining gardidan o'lik jon topsa ajabmas, negaki uning ko'yida had-hisobsiz jonlar tuproq bo'ldi)

106-g'azal

Ot va ot ma'nosidagi so'z turkumlari bilan ifodalangan kesimlar, odatda, bog'lamalar bilan birikadi. Bog'lama yordamchi so'z vositasidagi bo'lak bo'lib, kesimning ma'nosiga oid, eganing semantis hamda grammatik ma'nolarini (shaxsi, zamoni, soni, mayli va boshqalarni) ifodalaydi.

Jom erur men telbaga qonlig' ko'zumning kosasi,
 Lolalar sahroda bas, gar istasa Majnun qadah.

(Sharh: Men telbaga qonli ko'zimning kosasi jomdir. Zotan, Majnun agar istasa, sahrodagi lolalar unga qadah bo'ladi)

105-g'azal

Labing xayolida ashkim **erur hayot suyi**,
 Firoqing ichra qorarg'an ko'zum anga **zulmot**.

(Sharh: Sening labing xayolida ko'z yoshlarim hayot suvi, firoqing yo'lida qorargan ko'zlarim esa, bu hayot suvini bag'rida yashirgan zulmat mamlakatidir)

75-g'azal

Oti sarkash, to'ni zarkash, husni dilkash, nutqi xush,
 Ko'rma duk bu nav' mahvash chobuku ra'no yigit.

(Sharh: Sarkash otga mingan zar choponli bu yigit husni ham dilkash, ham so'zlari yoqimli. Ham chiroyli va ham epchil bunday yigitni ilgari sira ko'rmaganmiz)

80-g'azal

Fe'l kesimlar fe'lning aniqlik yoki boshqa mayl shakllari orqali ifodalanadi. Hozirgi zamon tiliga nisbatan qadimgi turkiy til va eski o'zbek tilida sifatdosh va ravishdosh kesim vazifasida kengroq qo'llanadi:

Qilib man'i jununum ul pariy ko'yiga **yuzlangan**

So'zi hashv erkanin fahm aylagay, beixtiyor o'lg'ach.

(Sharh: Menga jununni man' etgan kishi ul pariy ko'yiga yuzlanib, ixtiyor qo'lidan ketsa, gapirgan gaplari ortiqcha ekanligini biladi)

97-g'azal

Ko'ngullar nolasi zulfung kamandin nogahon **ko'rgach**,

Erur andoqki, qushlar qichqirishqaylar yilon **ko'rgach**.

(Sharh: Zulfig rishtalarini nogahon ko'rgan ko'ngillarning nolasi qushlar yilonni ko'rgach qichqirishlariga o'xshaydi)

96-g'azal

To'ldiruvchining davrlar bo'yicha taraqqiyoti ikki masala bilan – to'ldiruvchi vazifasida kelgan so'zning shakily o'zgarishi va bu xil so'zning kesim bilan ma'no munosabatidagi o'zgarishlar bilan bog'langandir. Ma'lum kelishik shaklini olgan so'zlar bilan ifodalangan to'ldiruvchilarning taraqqiyotida ayrim to'ldiruvchilarning ishlatilmay qolib ketishini ko'ramiz, bu ham ayrim kelishik qo'shimchalarining arxaiklashishi bilan bog'liq. Qadimgi va eski turkiy tilda vositasiz to'ldiruvchi ko'p vaqt qo'shimchasiz bo'ladi:

Meni usruk ko'rubon **jomim** ushatma, ey shayx

Kim, bu yanglig' meni mast etgan erur jomi alast.

(Sharh: Ey shayx, meni mast ko'rib, jomimni ushatma, men alast kuni – ruhlar Parvardigoriga imon keltirgan kunidayoq bu jom bilan mast bo'lganman)

88-g'azal

Ammo eski o'zbek tilida belgili qo'llangan vositasiz to'ldiruvchilar ham uchraydi:

Orazingning lam'asi kuydurdi **sabrim xaylini**,

Barqi ofat choqilib ul korvong'a tushti o't.

(Sharh: Yuzingning shu'las sabrim qo'shinini kuydirib halok etdi. Go'yoki ofat chaqini chaqilib, bu korvonga o'xshaydi)

86-g'azal

To'ldiruvchilarning boshqa kelishik qo'shimchalari bilan ham kelishi kuzatiladi:

Ey nasimi subh, ahvolim **diloroming'a** ayt.

Zulfi sunbul, yuzi gul, sarvi **gulandoming'a** ayt.

(Sharh: Ey tong nasimi, ahvolimni zulfi sunbuldek halqa-halqa, yuzi guldek chiroyli, qomati sarvdek raso diloromimga yetkaz)

84-g'azal

Ma'lum ko'makchili so'zlar bilan ifodalangan vositali to'ldiruvchilar ham qadimgi davrlardan boshlab qo'llanib keladi. Davrlar o'tishi bilan ayrim ko'makchili birikmalar ishlatilmay qolib ketdi, yangilari paydo bo'ldi; ba'zilarining shakli biroz o'zgardi.

Zulfi ollinda binafshaki, boshin soldi quyi,

Ani ko'rmakka hamono munga moni'dur uyot.

(Sharh: Uning jingalak zulfi oldida binafsha boshini egib turibdi. Go'yo binafshaga zulfni ko'rishi uchun uyat monelik qilmoqda)

83-g'azal

Umuman, tarixiy taraqqiyot jarayonida vositali to'ldiruvchining hol va aniqlovchiga o'tishi, shu gap bo'laklarining doirasini to'ldirishga intilish seziladi.

Aniqlovchining har ikki turi (sifatlovchi va qaratqichli aniqlovchilar) eski turkiy tilda ham qo'llanadi.

Terlagan la'li gulob ichramudur **gul** bargi
Yo'qsa usruk ko'zimu soldi araq ichra nabot.

(Sharh: La'ldek terlagan lablari gulob ichidagi gulning bargimi, yoki mast ko'zi araq ichiga novvot soldimi)

83-g'azal

Jon qushin o'rtandi sevgach yorning **o'tlug'** yuzin,
Naylagay kuymay, chu bo'lg'ay sham' ila parvona do'st.

(Sharh: Yorning o'tli yuzini sevgach, jonim qushi kuyib-o'rtandi. Axir parvona sham bilan do'st tutingandan so'ng kuymay nima qilsin?!)

87-g'azal

Qaratqichli aniqlovchi qadimgi davrlardan boshlab qo'llanib keladi. Qaratqichli aniqlovchining qo'shimchasiz shakli qadimgi va ilk eski turkiy tilda ko'proq qo'llangan va bunday aniqlovchi izohlovchiga yaqin turgan:

Poklik pardasida tutsun ani Ezidi pok,
Kim erur asru yuzi poku o'zi pok yigit.

(Sharh: Pok Parvardigorim uni poklik pardasida asrasin, chunki u chehrasi ham, ko'zi ham juda pok yigit)

Aniqlovchi qo'shimchali bo'lib, aniqlanmish belgisiz bo'lgan qaratqichli sintagma ilk eski turkiy tilda ko'proq qo'llanadi:

Aniqlovchili sintagmaning boshqa bir turi – aniqlovchi qo'shimchasiz bo'lib, aniqlanmish qo'shimchali bo'lgan turi – qadimgi turkiy va ilk O'rta Osiyo turkiy tilda ancha keng qo'llanadi:

Ko'ngul qushi tun-u kun mulki boxtar sori
Havo qilurg'a mahi xovariy erur bois.

(Sharh: Ko'ngil qushi kecha-yu Kunduz kunbotar tomonga mayl qilishiga o'sha sharqdan chiqqan oy sababdir)

91-g'azal

Bu xil birikmalar hozirgi o'zbek adabiy tilida ham qo'llanadi. Ammo o'z aniqlovchisi bo'lgan yoki egalik qo'shimchasini olgan, aniqlanmish bilan distant holatda bo'lgan, yoki atoqli ot, yoxud otlashgan so'z bilan ifodalangan aniqlovchilar hozirgi zamon tilida doim qaratqich qo'shimchasini oladi. Bunday hollarda ham qadimgi va ilk turkiy tilda aniqlovchi qo'shimchasiz kelavergan

Hol turli so'z turkumlari – ravish, ot, ravishdosh orqali ifodalanadi. Qadimgi yozma yodgorliklar tilida ham hol ana shu so'z turkumlari orqali ifodalanib kelar edi. Davrlar o'tishi bilan hol vazifasida kelgan so'zning shaklida va kesim bilan bo'lgan ma'no munosabatida ma'lum o'zgarishlar ro'y berdi.

Bosh kelishikdagi ot orqali ifodalangan hollar qadimgi va ilk O'rta Osiyo turkiy tilida keng qo'llangan. Hozirgi zamon tilida payt anglatuvchi otlar va ba'zan o'rin bildiruvchi atoqli otlar hol vazifasida ham bosh kelishik shaklida qo'llanadi:

Eski o'zbek tilida ravishdoshning -gach shakli ham hol vazifasida qo'llana boshlaydi:

Yuzin zulf ichra to ko'rdum o'lub vaslig'a yetmasmen,
G'alat ermish yuz urmoq, kecha o'tni **har qayon ko'rgach**.

(Sharh: Zulfi orasida yuzini ko'rdim, o'lib ham vasliga yetmasman. Tunda, duch kelgan tomonga o'tni ko'rib yuzlanmoq noto'g'ri ishdur)

96-g'azal

Eski o'zbek tilida jo'nalish, o'rin va chiqish kelishiklari bilan kelgan otlar muntazam ravishda hol vazifasida keladi va bu bilan hozirgi zamon tiliga yaqinlashadi:

Nishot bazmida soqiyi mohvash sarxush

Bosh ursa dog'i ayog' tutsa, qo'l sola qadah ich.

(Sharh: Oyday chehrali soqiy shodlik bazmida sarxush bo'lib kelsa va senga boshini egib, jom tutsa, qo'l solibon sharob ich)

99-g'azal

Eyki, mujgondin yasol tuzding **ko'ngullar saydig'a**,

Ko'z yumub ochquncha ushbu xaylni qo'zg'atma ko'p.

(Sharh: Ko'ngillar saydi uchun kiprikdan qo'shin tuzibsan, ko'z ochib yumguncha bu ko'plab ko'ngillarni ortiq qo'zgatma)

68-g'azal

Eski o'zbek tilida ald, ast, ust, ich, ara, sayin, sari, uza, keyin, uchun, qarshi, tegi, o'tru, son, burun nari va boshqa ko'makchilar va ko'makchi vazifasidagi otlar hol vazifasida keng qo'llanadi:

Tengri razzoq keldi ro'ziy uchun,

Aylama o'zni **xalq aro** muhtoj.

(Sharh: Rizq beruvchi Allohdir. Bir burda non uchun boshqalarga ehtiyojini aytib ovora bo'lma)

100-g'azal

Dedimki, maykadadin xonaqah yo'lin tutayin,

Netayki, **ul sari** yo'l bermas istixora qilib.

(Sharh: Mayxonani tark etib, xonaqah yo'lini tutayin, dedim. Netayki, istixora namozini o'qiganimda bu yo'lni tutishim xayrli bo'lmasligi ayon bo'ldi)

64-g'azal

Ko'si shavkat yeti do'zaxqa eshik qoqmoqdadir,

Bas **yeti iqlim mulki uzra** sulton bo'ldi tut.

(Sharh: Yetti iqlimda yagona sulton bo'lsang-da, shon-shavkatingning dabdabasi o'z mohiyatiga ko'ra yetti do'zaxning eshigini qoqmoq ekanini e'tiborga ol)

69-g'azal

Umuman, eski o'zbek tilida ko'makchi va ko'makchi vazifasidagi so'zlarning doirasi juda kengayadi. Bu ko'makchilarning ko'pi hozirgi zamon tilida qo'llanmaydi. Tarixiy taraqqiyotda hol doirasining vositali to'ldiruvchilar hisobiga kengayib borish jarayoni seziladi. Bu holat ko'makchi va ko'makchi vazifasidagi konkret ma'no ifodalash tomoniga taraqqiy etishi bilan bog'liqdir. Chunki, asosan, hol mavhum tushuncha ifodalaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov A. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: Fan, 2010.

2. Rasulov R., Jo'rayev M. Hozirgi o'zbek tili sintaksisi. – Toshkent: O'qituvchi, 2012.
3. G'ulomov A., Asqarova M. O'zbek tili sintaksisi. – Toshkent: O'zbekiston, 2008.
4. Qo'ng'irov R. Qadimgi turkiy til. – Toshkent: Universitet, 1998.
5. Sirojiddinov S. O'zbek tili tarixi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2015.
6. Navoiy A. G'azallar devoni. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 1989.
7. Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: O'qituvchi, 1992.